INKLYUZIV TA'LIM ISLOHOTLARI

Vol 1 № 2 2026

Hududiy mehnat bozori va unga ta'sir etuvchi omillar

Egamov Diyorbek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat texnika instituti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehnat bozori va ishsizlik muammosining nazariy hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida Adam Smith, Milton Friedman, David Ricardo kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, mehnat bozori mexanizmlari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda davlatning faol bandlik siyosatini izchil amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq ekani aniqlangan.

Kalit so'zlar: ishsizlik, hududiy mehnat bozori, migratsiya, demografik omillar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, infratuzilma, diversifikatsiya.

Mehnat bozorida ishsizlik muammosi xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda Adam Smith, Milton Friedman, William Petty, David Ricardo kabi tadqiqotchilar muhim ilmiy xulosalarni ilgari surganlar. Ularning ishlari mehnat bozori mexanizmlari, ishsizlik sabablari va uni kamaytirish yo'llarini tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mehnat bozori va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganishda Shamil Soyan hamda Oleg Oorjak tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Ularning fikriga ko'ra, hozirgi davrda Rossiya Federatsiyasida mehnat salohiyatining asosiy muammolari sifatida tug'ilish darajasining pasayishi va o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi natijasida iqtisodiy faol hamda mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarib borayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy nuqtayi nazardan ikki muhim muammo ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, mehnat kuchiga talab mavjud bo'lishiga

inklyuziv ta'lim islohotlari

qaramay, uning yetarli darajada taklif etilmasligi; ikkinchidan esa, ishchi kuchi tanqisligi sababli yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham mazkur yo‘nalishda qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, Qodirjon Abdurahmonov mehnat bozorining samarali faoliyat yuritishi va ishsizlik darajasini pasaytirish masalalarini tadqiq etgan. Zafar Xudoyberdiyev tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishga joylashtirishning zamonaviy texnologiyalarini o‘rganishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Murodjon Xolmuxamedov yoshlar bandligini tartibga solish va ularni mehnat bozoriga jalb etish muammolarini tahlil qilgan.

1-rasm. Hududlarning mehnat bozori indeksi.

Yurtimiz tomonidan amalda qo‘llanilayotgan bandlik siyosati esa viloyatlarda bosh ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va shaxsiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xalqni bandlik darajasini kengaytirishga qaratilgan bir qacha chora-tadbirlarni qamrab olishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, hududlarda mehnat resurslarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bilim va malaka asosiy raqobat ustunligiga aylanmoqda. Shu sababli hududiy mehnat resurslarining raqobatbardoshligini oshirish bandlik masalasini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar kesimida aholi bandligini ta’minlash jarayonida turli xil o‘ziga xos muammolar yuzaga keladi. Shaharlarda sanoatning kengaytirish choralari, yuqori texnologiyalarni barpo etish hamda xizmatlar sohasining o‘sishi natijasida ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari nisbatan yuqori xisoblanib, bandlik masalasini hal etish qishloq hududlariga qaraganda ancha yengilroq kechadi.

Inklyuziv ta'lim hotlari

Aksincha, qishloq joylarda iqtisodiyotning asosan agrar yo‘nalishga bog‘liqligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ishlab chiqarish salohiyatining cheklanganligi yangi ish o‘rinlarini tashkil etishni murakkablashtiradi. Ushbu ish yuzasidan, ayniqsa qishloqda yashovchi yoshlari o‘rtasida ishsizlik darajasi ancha oshgan bo‘lib, ularni hududiy iqtisodiy faoliyatga etiborini qaratish dolzarb masalalardan biri sifatida barpo bo‘ladi desash joyisdir.

Ushbu sabablar xalqni migratsiya jarayonlarining oshishiga olib kelishi mumkindir. Natijada, yuzlab yoshlar va malakali kadrlar ish izab juda kop yirik shaharlarga bazilari xorijiy davlatlarga borishga majbur bo‘lmoqdalar. Ushbu holat yuzasidan hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni koplab kuchaytiradi.Keltirilgan omillar va ularning oqibatlari tadqiq etilayotgan mavzuning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini belgilab beradi.Mehnat resurslari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanib, jamiyatning ishlab chiqarish salohiyatini belgilab beradi. Mehnat resurslari tushunchasi mehnatga layoqatli yoshdagi aholining iqtisodiy faol qismiga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu resurslar mamlakat, hududlar iqtisodiy rivojlanishining yanada harakatlantiruvchi quvvati hisoblanadi. Mehnat resurslarining miqdori va sifati ishlab chiqarishdagi hajmi, samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi desak to‘g‘ri bo‘lsa kerek. Mehnat resurslari tarkibiga doimiy ravshda ishlayotgan insonlar, vaqtinchalik ish bilan band bo‘lgan insonlar va ish izlayotgan insonlar kiradi deyish mumkindir. Mehnat resurslarining hududiy xususiyatlari har bir mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar mehnat resurslari joylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan hududlarda mehnat resurslari zich joylashadi. Kam rivojlangan hududlarda esa mehnat resurslarining yetishmasligi kuzatiladi. Bu holat ichki migratsiya jarayonlarini kuchaytiradi.

Shahar hududlarida mehnat resurslari ko‘proq sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida juda ko’plab band bo‘ladi. Qishloq hududlarga qarasak qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rinni egallaydi deb atashimiz mumkindir. Hududiy bandlikdagi bunday farqlar mehnat

inklyuziv ta'lim islohotlari

resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiladi. Infratuzilmaning rivojlanganligi mehnat resurslarining hududiy taqsimotida muhim rol o'ynaydi. Transport va kommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan hududlar ko'proq ishchi kuchini qulay iqlim sharoitiga ega hududlar mehnat resurslari uchun jozibador hisoblanadi. Noqulay iqlimli hududlarda esa mehnat r esurslarini jalb qilish qiyinlashadi. Shu sababli hududiy rivojlanish siyosatida ushbu omillar e'tiborga olinadi. Davlatning hududiy siyosati mehnat resurslarini taqsimlashda muhim ahamiyatga ega. Maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishi hududiy bandlikni oshiradi. Davlat dasturlari orqali kam rivojlangan hududlarda ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa hududlar o'rtasidagi tafovutlarni yoqatishga xizmat qilgan desak bo'ladi. Mehnat resurslarini mahalliy rivojlantirishda iqtisodiy barqarorlikni oshirishning muhim sharti deyiladi. Mahallarda bandlik darajasini oshirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini kengaytirish va ularni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kichik biznes yana xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tufayli yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, mehnat resurslarini qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish hududiy mehnat bozori muammolarini samarali hal etishda muhim omillarga yordam beradi. Ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Hududlarda kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish, ayniqsa zamonaviy kasb-hunar markazlari faoliyatini kengaytirish yoshlar bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi. Hududiy infratuzilmaning rivojlanishi esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ularni iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo'yicha oqilona taqsimlash imkonini yaratadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, bandlik mehnat resurslarining ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashishini ifodalovchi muhim iqtisodiy tushuncha hisoblanadi. U aholining daromad topish manbaini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiy mazmunda bandlik ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan mehnatning amalda qo'llanilishini va harakatga kelishini anglatadi.Bandlik

inklyuziv ta'lim islohotlari

darajasi mamlakat va hududlar iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Aholining bandligi yuqori bo‘lgan sharoitda yalpi ichki mahsulot hajmi oshadi.

Bandlik ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u aholining turmush darajasi va farovonligini belgilaydi. Barqaror bandlik jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Aksincha, bandlik darajasining pastligi kambag‘allikning ortishiga va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli bandlik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hududiy mehnat bozori - bu ma’lum bir geografik hudud doirasida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning shakllanishi, taqsimlanishi hamda undan foydalanish jarayonlarini ifodalovchi murakkab iqtisodiy tizimdir. U umumiy milliy mehnat bozorining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ziga xos hududiy xususiyatlar, iqtisodiy salohiyat, demografik tarkib va infratuzilma darajasi bilan farqlanadi. Bu bozor faqat ish o‘rinlari soni bilan emas, balki ularning sifati, ish haqi darajasi, mehnat sharoitlari va kasbiy tarkibi bilan ham tavsiflanadi. Hududiy mehnat bozoriga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri bu demografik omillardir. Aholining soni, yosh tarkibi, mehnatga layoqatli qatlam ulushi va tabiiy o‘sish sur’atlari hududdagi ishchi kuchi taklifini belgilaydi. Yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda ish o‘rinlariga talab keskin ortadi, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratishni talab etadi. Aksincha, aholisi qarib borayotgan hududlarda mehnat resurslari qisqaradi va bu iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, urbanizatsiya darajasi ham muhim bo‘lib, shaharlarda ish o‘rinlari ko‘proq jamlangan bo‘lsa, qishloq hududlarida bandlik asosan agrar sektor bilan bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy omillar hududiy mehnat bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Hududda sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi kabi tarmoqlarning rivojlanganlik darajasi ish o‘rinlari tarkibi va hajmini belgilaydi. Diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotga ega hududlarda bandlik imkoniyatlari keng bo‘ladi, chunki turli sohalarda ish o‘rinlari mavjud bo‘ladi. Aksincha, bir yoki ikki tarmoqqa ixtisoslashgan hududlarda iqtisodiy inqiroz yoki bozor o‘zgarishlari bandlikka keskin ta’sir ko‘rsatadi.

inklyuziv ta'lim islohotlari

Hududiy mehnat bozoriga ijtimoiy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aholining ta'lim darajasi, kasbiy malakasi va mehnat madaniyati ishchi kuchining sifatini belgilaydi. Yuqori malakali kadrlar mavjud hududlarda yuqori texnologiyali va innovatsion tarmoqlar rivojlanadi. Ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik esa strukturaviy ishsizlikni keltirib chiqaradi, ya'ni mavjud ish o'rinlariga mos keladigan kadrlar yetishmaydi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma - sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy sharoitlari - aholining hududda qolish yoki boshqa joyga ko'chib ketish qaroriga ta'sir qiladi. Hududiy mehnat bozorida migratsiya jarayonlari alohida o'rin tutadi. Ichki migratsiya - qishloqdan shaharga yoki kam rivojlangan hududlardan rivojlangan hududlarga ko'chish - ishchi kuchi taqsimotini o'zgartiradi. Bu ayrim hududlarda ishchi kuchi ortiqchaligiga, boshqalarida esa yetishmovchiligiga olib keladi. Tashqi migratsiya esa, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda muhim omil bo'lib, ishchi kuchining bir qismi xorijga ketadi va bu ichki mehnat bozoriga bosimni kamaytiradi, lekin uzoq muddatda malakali kadrlar oqib ketishi muammosini yuzaga keltiradi.

2-rasm. Iqtisodiy o 'sishga ta'sir ertuvchi omillar.

Iqtisodiy omillar hududiy mehnat bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Hududda sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarning rivojlanganlik darajasi ish o'rinlari tarkibi va hajmini belgilaydi. Diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotga ega hududlarda bandlik imkoniyatlari keng bo'ladi, chunki turli sohalarda ish

o‘rinlari mavjud bo‘ladi. Aksincha, bir yoki ikki tarmoqqa ixtisoslashgan hududlarda iqtisodiy inqiroz yoki bozor o‘zgarishlari bandlikka keskin ta’sir ko‘rsatadi.

Hududiy mehnat bozoriga ijtimoiy omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Aholining ta’lim darajasi, kasbiy malakasi va mehnat madaniyati ishchi kuchining sifatini belgilaydi. Yuqori malakali kadrlar mavjud hududlarda yuqori texnologiyali va innovatsion tarmoqlar rivojlanadi. Ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik esa strukturaviy ishsizlikni keltirib chiqaradi, ya’ni mavjud ish o‘rinlariga mos keladigan kadrlar yetishmaydi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma - sog‘liqni saqlash, ta’lim, uy-joy sharoitlari - aholining hududda qolish yoki boshqa joyga ko‘chib ketish qaroriga ta’sir qiladi. Hududiy mehnat bozorida migratsiya jarayonlari alohida o‘rin tutadi. Ichki migratsiya - qishloqdan shaharga yoki kam rivojlangan hududlardan rivojlangan hududlarga ko‘chish - ishchi kuchi taqsimotini o‘zgartiradi. Bu ayrim hududlarda ishchi kuchi ortiqchaligiga, boshqalarida esa yetishmovchiligiga olib keladi. Tashqi migratsiya esa, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda muhim omil bo‘lib, ishchi kuchining bir qismi xorijga ketadi va bu ichki mehnat bozoriga bosimni kamaytiradi, lekin uzoq muddatda malakali kadrlar oqib ketishi muammosini yuzaga keltiradi.

Infratuzilma omillari ham hududiy mehnat bozorining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Transport tarmoqlari, kommunikatsiya vositalari va logistika tizimlari rivojlangan hududlarda ishchi kuchining harakatchanligi yuqori bo‘ladi. Bu esa ishchi kuchining talab mavjud bo‘lgan joylarga tez yetib borishini ta’minlaydi. Energetika, sanoat zonalari va texnoparklar mavjudligi esa investitsiyalarni jalb etib, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Davlat siyosati hududiy mehnat bozori rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida soliq yengilliklari, subsidiyalar berish, hududlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan dasturlar hamda bandlikni qo‘llab-quvvatlovchi davlat tashabbuslari keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-

Inklyuziv ta'lim islohotlari

quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar hududiy bandlik darajasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Masofaviy ish imkoniyatlari kengayishi natijasida geografik joylashuv omilining ahamiyati qisman kamaymoqda. Endilikda kichik hududlarda yashovchi aholi ham yirik shaharlardagi yoki hatto xorijdagi ish beruvchilar bilan ishlash imkoniga ega. Bu esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, hududiy mehnat bozori ko‘p omilli va dinamik tizim bo‘lib, uning samarali ishlashi uchun demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va institutsional omillar o‘rtasida muvozanat bo‘lishi zarur. Har bir hudud o‘zining tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishi lozim. Faqat shundagina hududiy bandlik barqarorligi ta’minlanadi va umumiy iqtisodiy o‘sishga erishiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda hududiy mehnat bozori esa demografik o‘zgarishlar, migratsiya jarayonlari, investitsiya faolligi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasi kabi ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Uning barqarorligi esa hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quydagi sababli mahalliy bandlikni samarali bajarishda mehnat bozorini malum yo‘nalishga solish va yana institutsional mexanizmlarni kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Hududiy bandlikni ta’minlash mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy bandlik modellari va hududiy mehnat bozorini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning kompleks yondashuv asosida rivojlantirilishi hudud iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim islohotlari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

2. Rasulov A.R. Hududiy iqtisodiyot va mehnat bozori. - Toshkent: Universitet, 2020.

3. Mullajonov M.M. Mehnat bozori va bandlikni tartibga solish. - Toshkent: Yangi nashr, 2018.

4. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010.

5. To‘xtaboev A.T., Eraliev A.A. Tashkiliy xatti-harakatlar. Qo‘llanma. -Andijon: «Hayot», 2001

6. Vahobov M va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. - T.: “Sharq”, 2015.

Inklyuziv ta'lim islohotlari